


Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyun)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4715,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 104,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 84,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 5,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish sanoatining - 4,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 3,1 martaga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 34,2 % ga pasayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat


2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3983,5 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,8 % ni (2019-yil yanvar-iyun oylarida - 3,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,2 % (6,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 10,6 % (10,2 %) va quyi texnologiyalisi - 81,4 % (80,0 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 40,9 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,1 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,0 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 6,9 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,4 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 35,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,9 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Ishlab chiqaradigan sanoat	3983,5	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	963,0	24,2
Ichimliklar ishlab chiqarish	174,4	4,4
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1204,4	30,2
Kiyim ishlab chiqarish	674,8	16,9
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	48,5	1,2
Yog`och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	9,1	0,2
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	18,4	0,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,7	0,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	4,0	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	30,8	0,8
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	106,4	2,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	59,0	1,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	201,0	5,0
Metallurgiya sanoati	18,6	0,5
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	137,9	3,5
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	5,2	0,1
Elektr uskunarlar ishlab chiqarish	142,4	3,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunarlar ishlab chiqarish	21,0	0,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	7,4	0,2
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	7,1	0,2
Mebel ishlab chiqarish	59,2	1,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	85,4	2,1
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	2,1	0,1

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi
mahsulotlarning o'sish sur'ati




2020-yilning yanvar-iyun oylari davomida viloyatda ishlab chiqaradigan sanoatda 23,3 ming tonna paxta tolasi (2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 51,9 % ga o'sgan), 64,1 ming tonna un (5,9 %), 10,9 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (62,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	15,4	23,3	7,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	186,8	200,8	14,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	29,2	15,1	-14,1
Vino, ming litr	761,0	340,0	-421,0
Un, ming tonna	60,5	64,1	3,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	6,7	10,9	4,2



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 675,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,3 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,1 martaga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s		2 257,3	2 257,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	45,9	55,6	9,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan
tomondan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	17,5	22,3	4,8
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	2,0	2,1	0,1
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	8,8	11,3	2,5
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	2,3		-2,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 27,4 % ga, oqava suvlarni shlami 5,0 % ga hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 28,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2590,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 54,9 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 0,8 % (2019-yil yanvar-iyun oylarida 1,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shaharga to'g'ri kelib, 40,0 % ni, shuningdek, Namangan tumani 12,2 % ni, Mingbuloq tumani 9,5 % ni, Uchqo'rg'on tumani 7,4 % ni, To'raqo'rg'on tumani 6,4 % ni hamda Kosonsoy tumani 5,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (105,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich To'raqo'rg'on (142,2 %), Uchqo'rg'on (123,8 %), Norin (116,9 %), Chortoq (114,7 %), Pop (106,1 %), Kosonsoy (101,8 %), Mingbuloq (9,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)

	Mrld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	2590,5	100,0	105,4
Namangan shahar	1036,3	40,0	89,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	246,5	9,5	9,6 m
Kosonsoy	143,7	5,5	101,8
Namangan t	316,4	12,2	94,2
Norin	41,1	1,6	116,9
Pop	132,7	5,1	106,1
To'raqo'rg'on	166,7	6,4	142,2
Uychi	110,2	4,3	79,6
Uchqo'rg'on	190,5	7,4	123,8
Chortoq	61,5	2,4	114,7
Chust	102,5	4,0	92,5
Yangiqo'rg'on	42,4	1,6	72,9

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1053,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020-yil yanvar-iyun <i>mlrd. so'm</i>	Fizik hajm indeksi, % da
Viloyat jami	4715,3	104,5
Namangan shahar	1683,3	94,8
Mingbuloq	337,3	108,6
Kosonsoy	162,0	99,4
Namangan t	435,9	104,4
Norin	165,5	148,9
Pop	235,3	104,9
To'raqo'rg'on	680,1	103,9
Uychi	288,9	92,0
Uchqo'rg'on	401,8	113,2
Chortoq	72,9	103,9
Chust	208,3	112,9
Yangiqo'rg'on	44,0	65,0

Viloyat ishlab chiqarish hajmida hududlar
sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,7 % ulushini), To'raqo'rg'on (14,5 %), Namangan (9,3 %), Uchqo'rg'on (8,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam ulush Yangiqo'rg'on (0,9 %), Chortoq (1,5) tumanlariga to'g'ri keladi.


Hududlarning sanoat ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar Norin (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 148,9 %), Uchqo'rg'on (113,2 %), Chust (112,9 %), Mingbuloq (108,6 %) hamda Pop (104,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati
(2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da)


Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati indeksi
(2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Mingbuloq (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 9,6 marta), To'raqo'rg'on (142,2 %), Uchqo'rg'on (123,8 %), Norin (116,9 %), Chortoq (114,7 %), Pop (106,1 %), Kosonsoy (101,8 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmning 40,0 % ulushini), Namangan (12,2 %), Mingbuloq (9,5 %), Uchqo'rg'on (7,4 %), To'raqo'rg'on (6,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,6 %), Norin (1,6 %), Chortoq (2,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili To'raqo'rg'on tumani (3004,0 ming so'm), Namangan shahrida (2674,5 ming so'm), Mingbuloq tumani (2670,4 ming so'm), Namangan tumani (2429,8 ming so'm) va Uchqo'rg'on (2334,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1670,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (201,6 ming so'm), Chortoq (366,2 ming so'm), Kosonsoy (773,5 ming so'm), Chust (784,0 ming so'm) va Norin (1009,9 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Viloyat jami	1670,4	917,7
Namangan shahar	2674,5	1646,3
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	2670,4	1952,0
Kosonsoy	773,5	686,3
Namangan t	2429,8	1763,4
Norin	1009,9	250,9
Pop	1070,5	603,9
To'raqo'rg'on	3004,0	736,3
Uychi	1355,1	517,0
Uchqo'rg'on	2334,7	1106,8
Chortoq	366,2	308,9
Chust	784,0	385,9
Yangiqo'rg'on	201,6	194,5


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 917,7 ming so'm bo'lgani holda Mingbuloq tumanida 1952,0 ming so'mni, Namangan tumanida 1763,4 ming so'mni, Namangan shahrida 1646,3 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1106,8 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi bo'yicha eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (194,5 ming so'm), Norin (250,9 ming so'm), Chortoq (308,9 ming so'm) va Chust (385,9 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2061,5 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 43,7 % tashkil etmoqda.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiyo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,4 %), va Chust (64,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush Mingbuloq (10,5 %), To'raqo'rg'on (16,6 %), Uchqo'rg'on (18,4 %), Norin (21,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5898 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2398 tasi Namangan shahrida, 448 tasi Uychi, 444 tasi Namangan, 439 tasi Chust, 394 tasi To'raqo'rg'on, 392 tasi Kosonsoy, 262 tasi Norin, 260 tasi Uchqo'rg'on, 248 tasi Yangiqo'rg'on, 232 tasi Chortoq, 230 tasi Pop va 151 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.




2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 721 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 47,0 % Namangan shahri, Uychi, Namangan tumanlariga to'g'ri keladi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 398 ta), Uychi (448 ta), Namangan (444 ta), Chust (439 ta), To'raqo'rg'on (394 ta), Kosonsoy (392 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyatda eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
2020 – yil 1-iyul holatiga ko'ra



Viloyatda eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
2020 – yil 1-iyul holatiga ko'ra



2020-yilning 1 iyul holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Norin (262 ta) Uchqo'rg'on (260 ta), Yangiqo'rg'on (248 ta), Chortoq (232 ta), Pop (230 ta) hamda Mingbuloq (151 ta) tumanlari qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z

ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 39 ta loyiha bo'yicha 142,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 0,9 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-iyun oylarida 212 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 70,6 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining oshganligi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	27	39
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	15	28
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	48,2	142,8
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	-	0,9
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	3	212

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (69) 227-84-80